



PSYCHOLOGICAL AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF STUDYING FAMILIES NOT REGISTERED IN A LEGAL MARRIAGE

Nazokat Khudoykulova

third-year doctoral candidate

The Institute for the Study of Youth Issues and Training of Promising Personnel

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Civil union, psychological stability, attachment theory, personal freedom, sociological analysis, modern family model.

Received: 23.03.25

Accepted: 25.03.25

Published: 27.03.25

Abstract: This article presents a psychological and theoretical analysis of cohabitation without legal marriage (civil unions, de facto families) in modern society. It explores the key factors contributing to the formation of such relationships, including the prioritization of personal freedom, declining trust in the institution of marriage, economic difficulties, and shifting cultural-moral values. The discussion is framed within the context of psychological theories such as Erikson's psychosocial development theory, Bowlby's attachment theory, and Maslow's hierarchy of needs, revealing issues of instability, insecurity, and emotional well-being in unmarried partnerships. The author seeks to explain the phenomenon using a combination of psychological, sociological, and individual-level approaches.

QONUNYI NIKOHDA BO'LMAGAN OILALARNI TADQIQ ETISH MUAMMOSINING PSIXOLOGIK-NAZARIY TAHLILI

Nazokat Xudoyqulova

3-kurs tayanch doktoranti

Yoshlar muammolarini o'rganish va Istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Калит сўзлар: Fuqarolik nikohi, psixologik barqarorlik, bog'lanish nazariyasi, shaxsiy erkinlik, sotsiologik tahlil, zamonaviy oila modeli.

Аннотация: Maqolada zamonaviy jamiyatda qonuniy nikohsiz yashash (fuqarolik nikohi, faktik oila) holatining psixologik va nazariy tahlili amalga oshirilgan. Bunday munosabatlarning shakllanishiga olib keluvchi

asosiy omillar – shaxsiy erkinlikka intilish, oila institutiga nisbatan ishonchning susayishi, iqtisodiy qiyinchiliklar va madaniy-axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi kabi omillar batafsil tahlil qilingan. Psixologik nazariyalar – Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi, Bovlbiyning bog'lanish nazariyasi va Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi asosida qonuniy nikohsiz oilalardagi barqarorlik, ishonch va ruhiy salomatlik muammolari yoritilgan. Muallif ushbu holatga individual, sotsiologik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda izoh berishga harakat qilgan.

ПСИХОЛОГО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ СЕМЕЙ, НЕ СОСТОЯЩИХ В ЗАКОННОМ БРАКЕ

Назокат Худойкулова

докторант 3-го курса

института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гражданский брак, психологическая стабильность, теория привязанности, личная свобода, социологический анализ, современная модель семьи.

Аннотация: В статье представлен психологический и теоретический анализ феномена совместного проживания без официальной регистрации брака (гражданский брак, фактическая семья) в условиях современного общества. Рассмотрены основные факторы, способствующие возникновению таких отношений: стремление к личной свободе, снижение доверия к институту семьи, экономические трудности и трансформация культурных и нравственных ценностей. На основе психологических теорий – психосоциального развития Э. Эриксона, теории привязанности Дж. Боулби и иерархии потребностей А. Маслоу – освещаются проблемы стабильности, доверия и психологического благополучия в подобных семьях. Автор стремится дать комплексную оценку явлению через призму индивидуального, социологического и психологического подходов.

Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar, globallashuv, axborot oqimining erkinligi va madaniyatlararo aralashuv natijasida oilaviy qadriyatlar ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. An'anaviy oila modeli bilan bir qatorda, qonuniy nikoh rasmiylashtirilmagan, biroq amalda turmush munosabatida yashayotgan juftliklar soni ortib

bormoqda. Bu holat turli mamlakatlarda turlicha baholansa-da, u umumiy tarzda “fuqarolik nikohi”, “faktik oila” yoki “nikohsiz birga yashash” kabi atamalar orqali ifodalanadi.

Bunday juftliklar orasida o‘zaro hissiy bog‘lanish mavjud bo‘lsa-da, rasmiy nikohning yo‘qligi turli psixologik, sotsiologik va huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, psixologik nuqtayi nazardan, bunday munosabatlarda barqarorlik, xavfsizlik va mas’uliyat tuyg‘usining yetarli emasligi kuzatiladi. Ayniqsa, bolali oilalarda ota-onaning huquqiy maqomi noaniq bo‘lishi bolalarning ruhiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1].

Mazkur holatga olib keluvchi omillarni tahlil qilar ekanmiz, bir necha asosiy sabablarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, individual erkinlikni ustun qo‘yish va rasmiy nikohni majburiyat deb qabul qilish, ikkinchidan, ijtimoiy yoki moliyaviy muammolar sabab nikohni rasmiylashtirmaslik, uchinchi esa oilaviy institutga nisbatan ijtimoiy ishonchning pasayishi. Shuningdek, ayrim hollarda nikohsiz yashash modeli muayyan submadaniyatlar yoki global ta’sirlar vositasida normal hol sifatida qabul qilinmoqda.

Psixologik nazariyalar nuqtayi nazaridan olib qaralganda, bu turdagi munosabatlarda xavfsizlik hissinin yetishmasligi, ishonch muammolari va hissiy beqarorlik holatlari keng tarqalgan. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, voyaga yetgan shaxslar uchun eng muhim bosqichlardan biri bu – yaqinlik va izolyatsiya o‘rtasidagi muvozanatni topishdir [1]. Qonuniy asosda rasmiylashtirilmagan oila modelida aynan yaqinlik munosabatining noaniqligi izolyatsiya hissini kuchaytirishi mumkin. Bowlby’ning bog‘lanish nazariyasida esa xavfsiz bog‘lanish munosabatlari bolaning ruhiy barqarorligi uchun muhim deb qaraladi. Nikohsiz oilalarda bu bog‘lanish doimiy tahdid ostida bo‘lishi mumkin.

Maslovning ehtiyojlar iyerarxiyasiga muvofiq, shaxslar o‘z hayotlarida xavfsizlik, ijtimoiy tegishlilik va muhabbat kabi ehtiyojlarni qondirishga intiladilar [3]. Nikohsiz yashovchi juftliklarda aynan bu ehtiyojlarning qondirilmaligi psixologik tangliklar, xavotirli holatlar va beqarorlikni yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas.

Avvalo, "qonuniy nikohsiz oila" tushunchasini aniqlashtirish lozim. Psixologik adabiyotlarda bunday juftliklar ko‘pincha "faktik nikoh", "fuqarolik nikohi" yoki "birga yashash munosabatlari" kabi atamalar bilan ifodalanadi. Bu holatda erkak va ayol nikoh qaydiga olinmagan bo‘lsa-da, birga yashaydi, turmush yuritadi va hatto farzand ko‘radi. Psixologik nazariyalar bunday munosabatlarning shakllanishiga quyidagi asosiy omillarni ko‘rsatadi:

T/r Omil nomi Tavsifi

1 Shaxsiy erkinlikni afzal ko‘rish Zamonaviy yoshlar orasida rasmiy majburiyatlardan qochish, individual qaror qabul qilishga intilish kuchaygan.

2 Oila institutiga bo'lgan ishonchning susayishi Ajrimlar sonining ortishi va oilaviy nizolar haqidagi ommaviy axborot vositalari yoritishi orqali nikohga nisbatan salbiy munosabat shakllanmoqda.

3 Iqtisodiy omillar To'y xarajatlari, uy-joy masalalari yoki moliyaviy barqarorlik yetishmovchiligi nikohni rasmiylashtirishga to'sqinlik qilmoqda.

4 Madaniy va axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi Ba'zi jamiyatlarda nikohsiz birga yashash ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan holatga aylangan.

Yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, eng yirik omillardan biri ba'zi yoshlar shaxsiy erkinlikni afzal ko'rishmoqda. Zamonaviy yoshlar orasida shaxsiy erkinlik, mustaqil qaror qabul qilish va hayot tarzini o'z ixtiyoriga ko'ra belgilashga intilish avvalgiga qaraganda ancha kuchaygan. Bu holat, bir tomondan, globallashtirish jarayonlari, axborot texnologiyalarining kengayishi va ommaviy madaniyatning ta'siri ostida shakllanayotgan yangi ijtimoiy ong mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, oilaviy hayotga bo'lgan yondashuvdagi o'zgarishlarning amaliy ifodasidir. An'anaviy jamiyatda oila — muqaddas, ijtimoiy va diniy majburiyatlar bilan bog'langan institut sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy individuallashtirilgan jamiyatda esa bu tushuncha ko'proq shaxsiy tanlov va hissiy qoniqish nuqtayi nazaridan baholanmoqda.

Psixologik nuqtayi nazardan, yosh avlodning erkinlikka bo'lgan intilishi Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasidagi "identifikatsiya" bosqichi bilan bevosita bog'liq [1]. Bu bosqichda yoshlar o'zlarining ijtimoiy rolini belgilash, mustaqil shaxs sifatida shakllanishga intiladi. Bunday jarayonda rasmiy nikoh, odatda, ma'lum ijtimoiy va huquqiy majburiyatlar bilan bog'langan bo'lib, yoshlar tomonidan "shaxsiy erkinlikni cheklovchi tizim" sifatida idrok etilishi mumkin. Natijada ular nikoh kabi an'anaviy institutdan ko'ra, rasmiy bo'lmagan, biroq hissiy va maishiy jihatdan shunga yaqin bo'lgan munosabatlarni afzal ko'rishlari kuzatilmoqda.

Shuningdek, Zigmunt Bauman tomonidan ilgari surilgan "suyuq zamon" (liquid modernity) kontsepsiyasida ham bu holat chuqur ifodalangan. Bauman bu atama orqali zamonaviy jamiyatda barcha ijtimoiy institutlar — jumladan, oila, nikoh, kasb, do'stlik, hatto shaxsiy identitet — barqarorlikdan yiroqlashib, vaqtincha va o'zgaruvchan tus olayotganini ta'kidlaydi [4]. Yoshlar o'rtasida barqaror, uzoq muddatli majburiyatlarni emas, balki moslashuvchan, istalgan vaqtda tugatish mumkin bo'lgan munosabatlarni afzal ko'rish tendensiyasi aynan shu nazariyaga mos keladi.

Sotsiologik yondashuvda esa, bu holat Ulrich Bekning "individuallashtirilgan jamiyat" nazariyasi bilan izohlanadi [5]. Bekga ko'ra, zamonaviy jamiyatda individlar oilaviy, kasbiy va ijtimoiy yo'nalishlarni avvalgidek kollektiv qadriyatlar asosida emas, balki shaxsiy tanlovlar

asosida belgilaydi. Bunda ular o'z hayoti uchun mas'uliyatni ham, erkinlikni ham o'z zimmasiga olishadi. Natijada, nikoh kabi ijtimoiy institutlar, agar ular individning shaxsiy rivojiga to'sqinlik qilsa yoki mustaqilligini cheklasa, inkor qilinadi yoki kechiktiriladi.

Yoshlarning bu tendensiyasi, albatta, ijtimoiy muhit, tarbiya, iqtisodiy erkinlik darajasi va gender munosabatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Masalan, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqillik darajasi oshgani sayin, ular ham nikohga kirmasdan yashashni tanlashlari ehtimoli ortadi. Bu esa jamiyatdagi gender rollarining qayta talqin etilishi va oilaga bo'lgan an'anaviy yondashuvlarning zaiflashuviga olib keladi.

Shu bilan birga, shaxsiy erkinlikni afzal ko'rgan munosabatlarda hissiy sadoqat, uzoq muddatli rejalashtirish, bolalar tarbiyasidagi barqarorlik kabi qadriyatlar zaiflashishi mumkin. Psixologlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu turdagi munosabatlarda yashovchi shaxslar orasida ishonchsizlik, xavotir va yaqinlikdan qo'rquv kabi holatlar ko'proq uchrashi kuzatilgan.

Shaxsiy erkinlikni afzal ko'rish zamonaviy yoshlarning rasmiy nikohdan qochishining asosiy psixologik va ijtimoiy-madaniy sabablaridan biridir. Bu jarayon ijtimoiy institutlar transformatsiyasining tabiiy oqibati bo'lsa-da, u bilan bog'liq muammolarni inkor etmaslik va ularni ijtimoiy siyosat, ta'lim va oilaviy qadriyatlar targ'iboti orqali muvozanatlash zarur.

Ikkinchi muhim omil oila institutiga bo'lgan ishonchning susayishidir. Zamonaviy jamiyatda oilaviy institutlarga bo'lgan ishonchning susayishi tobora jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Ayniqsa, rasmiy nikohga kirishdan bosh tortish, fuqarolik nikohini tanlash, ajrimlar sonining ortib borishi va nikohdan voz kechish holatlarining ommaviylashuvi jamiyatda nikoh institutiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib kelmoqda. Bu holat o'z navbatida oilaviy barqarorlikni zaiflashtiradi, psixologik ishonchni yemiradi va ijtimoiy rishtalarning mustahkamligini xavf ostida qoldiradi [6].

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekiston jamiyatida ham ajrimlar statistikasi sezilarli darajada oshgan. Bu esa o'z-o'zidan oila institutining mustahkamligi haqidagi tasavvurlarni zaiflashtiradi. Ajrimlar – faqat ikki shaxs o'rtasidagi huquqiy jarayon emas, balki butun jamiyat ongida oilaning ijtimoiy, ruhiy va axloqiy qadriyat sifatida tan olinishi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Ayniqsa, yoshlarga oilaning “zaif va beqaror” tizim sifatida taqdim etilishi, ularni rasmiy nikohdan tiyilishga undashi mumkin [7].

Bunday tendensiyaning shakllanishida ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarning roli alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'plab seriallar, ijtimoiy tarmoqlardagi bloglar, internet maqolalarida oilaviy munosabatlar ziddiyatli, ishonchsiz va doimiy xavf ostida bo'lgan tizim sifatida tasvirlanmoqda. Ayniqsa, ajrimlar, er-xotinlar o'rtasidagi mojaro, oilaviy zo'ravonlik yoki sodiqlik masalalari bilan bog'liq voqealar sensatsion

formatda yoritilgani sari, bu holat yosh ongida nikoh institutiga nisbatan qo'rquv, xavotir va ishonchsizlik uyg'otadi.

Psixologik jihatdan qaralganda, bu holat ijtimoiy ishonch inqirozi (crisis of trust) deb ataladigan hodisaga olib keladi. Shaxsda nikoh — xavfsizlik, mehr, ishonch va barqarorlik manbai emas, balki qiyinchilik, javobgarlik va kelajakdagi ajrim xavfi bilan bog'liq stress manbai sifatida idrok qilinadi. Natijada, yoshlar o'z shaxsiy hayotida rasmiy majburiyatlar (xususan, nikoh)dan qochishga intiladi va bu ularning rasmiy nikohsiz birga yashashni afzal ko'rishlariga sabab bo'ladi.

Sotsiologik yondashuvga ko'ra, oila – bu nafaqat shaxsiy muomala maydoni, balki ijtimoiy institut sifatida jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiylashtirish va madaniy uzviylikning negizidir. Nikohga nisbatan ishonchning zaiflashuvi esa bu institutsional rolining pasayishiga, natijada jamiyatda individualizmning ortishiga va ijtimoiy rishtalarning bo'shashishiga olib keladi. Aynan shuning uchun ham sotsiologlar oila institutining barqarorligini jamiyatning ma'naviy va axloqiy salohiyati bilan chambarchas bog'liq deb baholaydilar [8].

Shuningdek, oilaviy ziddiyatlar va ajrimlarga nisbatan jamoatchilikning loqayd munosabati, davlat darajasida mustahkam oila siyosatining sustligi ham oila institutiga bo'lgan ishonchni tiklashda salbiy rol o'ynaydi. Shu bois, bunday ishonch inqirozini faqat shaxsiy emas, balki tizimli va madaniy darajada hal etish lozim.

Oila institutiga nisbatan ishonchning susayishi — zamonaviy jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biri bo'lib, bu holat nafaqat individual qarorlar orqali, balki keng ijtimoiy siyosat, ta'lim, OAVning mas'uliyatli yondashuvi va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan strategik chora-tadbirlar orqali bartaraf etilishi mumkin.

Uchinchi muhim omillardan biri esa iqtisodiy sabablardir. Zamonaviy yoshlarning qonuniy nikohdan voz kechishiga olib kelayotgan omillar ichida iqtisodiy muammolar alohida va muhim o'rin tutadi. To'y marosimlariga sarflanadigan yuqori xarajatlar, uy-joy muammosi, doimiy ish o'рни va daromad manbasining yo'qligi yoki beqarorligi, shuningdek, yashash sharoitining umumiy og'irligi yoshlarning rasmiy nikohni rasmiylashtirishdan tiyilishlariga bevosita sabab bo'lmoqda [9].

Avvalo, to'y marosimlariga nisbatan ijtimoiy kutilmalar va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy bosimlar nikohni rasmiylashtirish jarayonida yoshlar uchun og'ir ijtimoiy va moliyaviy yukka aylanadi. Ayrim hollarda to'y o'tkazish uchun katta miqdorda qarzga kirish, majburiy hadyalar yoki qimmatbaho sovg'alar tayyorlash talabi, hatto turmush qurmoqchi bo'lgan juftliklar o'rtasida tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Bu esa nikohning rasmiy emas, lekin amaliy shaklda – ya'ni birga yashash shaklida davom etishiga olib keladi. Shunday

holatlarda nikohning huquqiy rasmiylashtirilishi moliyaviy jihatdan kechiktiriladi yoki mutlaqo rad etiladi.

Yana bir muhim omil – uy-joy masalasidir. Aksariyat hollarda turmush qurayotgan yoshlarning o'z shaxsiy turar joyi bo'lmaydi. Uy-joy narxining oshib borishi, ijaraga beriladigan kvartiralarining kamligi yoki qimmatligi, shuningdek, oilaviy qo'llab-quvvatlovning cheklangani, yoshlarni doimiy turmush o'rni tashkil qilishdan chekinishga majbur qiladi. Uy-joy masalasining hal bo'lmasligi – o'z navbatida, nikohning rasmiylashtirilishini noaniq muddatga suradi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, moliyaviy barqarorlikka erisha olmagan shaxsda nikoh tuzishga psixologik tayyorgarlik, ishonch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Moliyaviy mustaqillik, shaxsning o'z hayotini boshqarish qobiliyati va oilani moddiy ta'minlash mas'uliyati nikoh uchun muhim psixologik omillardir. Bu omillarning yetishmasligi esa, shaxsda o'zini ojiz, tayanchsiz his qilishiga olib keladi. Natijada, bunday vaziyatdagi shaxs rasmiy nikohni emas, balki ko'proq erkin, huquqiy majburiyatsiz munosabatni afzal ko'radi.

Sotsiologik yondashuvda esa bu holat jamiyatdagi iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy kapitalning notekis taqsimlanishi va yoshlar orasida ishsizlik muammosi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Yoshlarning iqtisodiy resurslarga bo'lgan cheklangan kirishi ularning mustaqil oila qurish imkoniyatlarini keskin toraytiradi. Ayniqsa, kambag'allik chegarasida yashovchi ijtimoiy qatlam vakillari uchun nikoh rasmiylashtirish ikkinchi darajali yoki hattoki keraksiz deb qaralishi mumkin. Ba'zida esa iqtisodiy barqarorlikka erishmaguncha nikohni kechiktirish hayotiy strategiyaga aylanadi [10].

Xalqaro tajribalar ham bu holatni tasdiqlaydi. Dunyodagi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, urbanizatsiya jarayoni tez kechayotgan hududlarda, nikoh yoshining kechikishi va nikohsiz birga yashash holatlari moliyaviy mustaqillikka bog'liq bo'lgan asosiy ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Masalan, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida olib borilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida nikohni kechiktirish yoki rasmiylashtirmaslik sabablari orasida birinchi o'rinda ish o'rni, daromad va uy-joy muammosi tilga olinadi.

Iqtisodiy omillar — rasmiy nikohga bo'lgan munosabatga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib, bu holat jamiyatning iqtisodiy barqarorligi, yoshlar siyosati va ijtimoiy himoya tizimlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, bu muammoni faqat ma'naviy yoki axloqiy jihatdan emas, balki tizimli ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar orqali hal qilish dolzarb bo'lib qolmoqda.

To'rtinchi omil esa madaniy va axloqiy qadriyatlarning o'zgarishidir. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida madaniy va axloqiy qadriyatlar jadal sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar insonning shaxsiy hayotiga, oilaviy munosabatlariga va ijtimoiy institutlarga bo'lgan munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim jamiyatlarda

nikohsiz birga yashash — ilgari ijtimoiy qoralangan va normativ cheklovlar doirasida baholangan hodisa — bugungi kunda asta-sekin ijtimoiy jihatdan qabul qilinadigan holatga aylanmoqda. Bu esa oilaning huquqiy rasmiylashtirilishiga nisbatan loqaydlik va befarqlikni kuchaytiradi.

Bunday jarayonlarning shakllanishiga, eng avvalo, globallashuv va ommaviy madaniyatning universallashtirish sabab bo'lmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, kino va seriallar, xalqaro migratsiya va ta'lim almashinuvlari orqali turli madaniy normalar o'zaro aralashmoqda. Natijada, an'anaviy jamiyatlar qadriyatlarida ham asta-sekin g'arbona hayot tarzi, jumladan, nikohsiz yashash, shaxsiy erkinlik, jinsiy munosabatlarni rasmiy doiradan tashqarida olib borish kabi g'oyalar ildiz otmoqda.

Bu holat madaniyatshunoslikda "qadriyatlar transformatsiyasi" yoki "normativ suyuqlik" (Bauman, 2000) deb ataluvchi jarayon bilan izohlanadi. Endilikda jamiyatda axloqiy me'yorlar qat'iy doiralarda emas, balki vaziyat va individual qarashlarga bog'liq tarzda shakllanmoqda. Masalan, ilgari sharmandalik deb qaralgan yoki ijtimoiy bosim ostida yashirilgan munosabatlar bugun ochiqchasiga namoyon qilinmoqda va jamiyat tomonidan sezilarli darajada "normal" deb baholanmoqda.

Ayni paytda, yosh avlod axloqiy qadriyatlar bilan emas, balki shaxsiy manfaat, his-tuyg'u va vaqtinchalik ehtiyojlarga asoslangan tanlovlarni ko'proq ustun qo'yimoqda. Bu holat "utilitar qadriyatlar tizimi"ning ustunligi bilan izohlanadi — ya'ni biror narsa foydali yoki qulay bo'lsa, u axloqan maqbul deb qabul qilinadi. Rasmiy nikoh esa ko'plab yoshlar uchun huquqiy cheklovlar, moddiy mas'uliyat va hayotiy erkinliklarning qisqarishi bilan bog'lanadi. Shu sababli ular axloqiy qadriyatlar emas, balki hayotiy qulaylik asosida qaror qabul qilishga moyil bo'lishadi.

Bunday madaniy o'zgarishlar, albatta, jamiyatning ichki ijtimoiy muvozanatiga, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikka va oilaviy qadriyatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oila, nafaqat hissiy-psixologik qo'llab-quvvatlov, balki shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy institut va avlodlar o'rtasidagi uzviylik timsoli bo'lishi kerak. Madaniy normalarning zaiflashuvi esa ushbu institutning obro'sini tushiradi, uni faqat "shaxsiy munosabatlar maydoni"ga aylantirib qo'yadi.

Shu bilan birga, diniy qadriyatlarning hayotda tutgan o'rni ham bu masalada muhim mezonlardan biridir. An'anaviy jamiyatlarda nikoh nafaqat huquqiy, balki diniy-marosimiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Ammo diniy ta'limotlardan uzoqlashish, sekulyar dunyoqarashning kuchayishi, hayotiy maqsadlarning individualistik tus olishi bu qadriyatlarning jamiyatdagi ta'sir doirasini qisqartirmoqda. Bu esa nikohga emas, erkin yashashga moyil bo'lgan turmush tarzining legitimlashuviga olib kelmoqda.

Madaniy va axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi — nikohsiz birga yashashning ijtimoiy normalashuvi uchun muhim zamin yaratmoqda. Bu esa jamiyatda nikohning qadri, oilaning funksiyasi va shaxsiy mas'uliyatga bo'lgan munosabatni o'zgartirayotgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ushbu jarayonni boshqarish uchun esa, zamonaviy madaniyat ichida oilaviy qadriyatlarni targ'ib etish, yosh avlod ongiga mas'uliyat va sadoqat tushunchalarini singdirish, hamda diniy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash zarur.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, qonuniy nikohsiz oila munosabatlari bir qator jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday munosabatlarda rasmiy huquqiy asoslarning yo'qligi shaxslar o'rtasidagi ishonch, mas'uliyat va barqarorlik tamoyillarini zaiflashtiradi. Avvalo, bu holat munosabatlardagi noaniqlik, barqaror kelajak haqidagi ishonchsizlik va psixologik xavfsizlik hissining yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Juftliklar o'rtasida "har qanday paytda munosabatni tugatish mumkin" degan ong osti holati mavjud bo'lganligi sababli, bu ularning emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, doimiy xavotir, beqarorlik va o'zaro ishonchsizlik hissiyotlari kuchayadi.

Bunday oilalarda, ayniqsa, farzandlarning ruhiy holati va ijtimoiy maqomi bilan bog'liq muammolar yanada murakkab tus oladi. Ota-onaning o'zaro munosabatlari huquqiy jihatdan mustahkamlanmaganligi sababli, bola nazarida ota-ona modelining yetishmovchiligi, ijtimoiy rol muvozanatining buzilishi, ijtimoiy ta'riflanmaganlik hissi shakllanishi mumkin. Bu esa bola ongida o'zini jamiyatda joylashtirish, ijtimoiy o'zlikni anglash va barqaror emotsional rivojlanishga jiddiy to'sqinlik qiladi. Masalan, ota-onalardan birining oilaviy munosabatdan chiqib ketishi holatida bolaning ruhiy jarohatlanishi, o'zini tashlab ketilgan yoki beqadrlikda his qilishi ehtimoli ortadi.

Nazariy yondashuvlar bunday holatlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, har bir inson hayotining muayyan bosqichida ijtimoiy o'zlikni shakllantirishi va barqaror yaqinlik (intimacy) munosabatlarini rivojlantirishi kerak. Rasmiy nikohsiz munosabatlarda aynan mana shu "yaqinlik va izolyatsiya" o'rtasidagi qarama-qarshilik muvozanatsiz holatda qoladi. Juftliklar rasmiy majburiyatlar yo'qligi sababli chuqur yaqinlikdan qochadi, bu esa psixologik izolyatsiyaga olib keladi.

Jon Bowlby tomonidan ilgari surilgan bog'lanish nazariyasi (attachment theory) ham bu masalada muhim tushunchalarni taqdim etadi. Unga ko'ra, inson bola bo'lgan paytdanoq xavfsiz va izchil emotsional bog'lanishga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj voyaga yetgan davrda ham doimiy va ishonchli munosabatlar orqali davom etadi. Nikohsiz oilalarda ushbu xavfsiz bog'lanish holati doimiy emasligi sababli, shaxsda xavotirli yoki befarq bog'lanish uslubi rivojlanadi. Bu esa

nafaqat juftlik o'rtasidagi munosabatlarga, balki ularning farzandlariga nisbatan munosabatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Abraham Maslovning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi esa bu jarayonni shaxsiy ehtiyojlar darajasida izohlaydi. Unga ko'ra, inson avvalo jismoniy xavfsizlik, ijtimoiy tegishlilik, muhabbat va o'zini qadrlash ehtiyojlarini qondirishi kerak. Qonuniy nikohsiz munosabatlarda aynan xavfsizlik va tegishlilik ehtiyojlari to'laqonli tarzda qondirilmagani sababli, shaxsning ruhiy rivoji va ijtimoiy moslashuvi to'liq ro'y bermaydi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy tazyiq, beqarorlik, depressiya va o'z-o'zini anglash muammolariga olib keladi.

Ko'plab zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, qonuniy nikohsiz yashash sharoitida bo'lgan shaxslar orasida xavotir buzilishi, emotsional zaiflik, ijtimoiy izolyatsiya, hatto yolg'izlik hissining yuqoriligi kuzatilmoqda. Bu esa munosabatlarning hissiy boyligi emas, balki funksional qulayligi asosida qurilganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, qonuniy nikohsiz oilalar fenomeni – zamonaviy jamiyatda dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biridir. Bu holat shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy rol taqsimoti, bola tarbiyasi va psixologik barqarorlikka sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Shu sababli bu masalani chuqur tadqiq etish, turli psixologik nazariyalar asosida tahlil qilish va unga ijtimoiy siyosat darajasida muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarbdir. Bu borada huquqiy himoya, ijtimoiy-ma'naviy targ'ibot va oilaviy qadriyatlarni barqarorlashtiruvchi dasturlar orqali kompleks yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – Москва: АСТ, 2006. – 350 с.
2. Боулби Д. Привязанность. Природа родительской любви. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 576 с.
3. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 352 с.
4. Бауман З. Текучая современность. – Москва: Весь Мир, 2008. – 240 с.
5. Бек У. Общество риска: На пути к другому модерну. – Москва: Прогресс-Традиция, 2000. – 384 с.
6. Черникова И. В., Григорьева М. В. Психологические аспекты внебрачного сожительства как формы современной семьи // Вестник Томского государственного университета. Серия: Психология. – 2020. – №52. – С. 94–102.
7. Исламова Р. Х. Изменение ценностей семьи в условиях трансформации общества // Общество и власть. – 2018. – №3(71). – С. 93–99.
8. Гидденс Э. Социология. – Москва: Эдиториал УРСС, 1999. – 703 с.

9. Абдуллаева Г. Т. О влиянии институциональных факторов на решение молодежи о заключении брака // Социологические исследования. – 2022. – №5. – С. 107–115.
10. Nazarov Sh. R. Psixologik barqarorlik va yoshlar: zamonaviy chaqiriqlar // Yosh olim. – 2021. – №6(84). – В. 112–117.